

**SHARLOTTA BRONTE IJODIDA IJTIMOIIY-REALISTIK
XUSUSIYATLARNING AKS ETISHI**

Xulkar Muxammedova,
*O‘zDJTU, Falsafa doktori (PhD),
dotsent*

***Annotatsiya.** Maqolada ingliz adabiyoti viktorian davri tahlilga tortilgan. XIX asr ingliz adabiyotida adibalar nasri o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi bilan birga adibalar tomonidan yaratilgan asarlar ijobiy baholanganligi kuzatiladi. Mavjud davrning ijtimoiy realistik xususiyatlari asarlarda juda keng ochib berilgan adibalardan biri Sharlotta Brontedir.*

***Kalit so‘zlar:** viktorian adabiyot, adiba, nasr, ijtimoiy, xususiyatlar, asar.*

***Аннотация.** В статье анализируется викторианский период английской литературы. В английской литературе XIX века наблюдается положительная оценка произведений, созданных писателями, наряду с тем, что проза писателей приобрела собственное значение. Шарлотта Бронте была одна из писательниц, очень широко раскрывших социалистические черты в своих произведениях.*

***Ключевые слова:** викторианская литература, писательница, проза, социалистический, роман, функции.*

***Annotation.** Article focuses on Victorian age in English literature. English literature in XIX century it is observed that the works created by writers were positively evaluated. Charlotte Bronte is one of the writers who revealed the socialist features of the age widely in her works.*

***Key words:** Victorian literature, woman writer, prose, socio-realistic, novel, features.*

XIX asr viktorian ingliz adabiyotida adibalar nasrining gullab-yashnashiga katta hissa qo‘shgan opa-singil Brontelar, E.Gaskell, J.Eliot va M.Olifantlar inglizabon mamlakatlar adabiyotida adibalar nasrini shakllantirgan yozuvchilar bo‘lib qoldi. Ular hayoti davomida o‘lmas asarlar yaratdi. Viktorian adabiyotning klassik namunalari sifatida e‘tirof etilgan asarlar bugungi kunda ham kitobxonlar e‘tiboridan chetda qolgani yo‘q.

Adibalar nasrining yetakchilaridan bo‘lgan Sharlotta Brontening hayotiy tajribalariga asoslangan ilk asari “The Professor”, ya’ni “O‘qituvchi” romanida ham shaxsiy hayoti bilan bog‘liq lavhalar, detallar ko‘zga tashlanadi. “O‘qituvchi” romani adibaning Brusselda o‘qib ishlagan davridagi faoliyatini o‘zida aks ettiradi. Roman yetakchi qahramon tilidan hikoya qilinadi. Xuddi Jeyn Eyr kabi asar qahramoni Uilyam Krimsort Charlzning o‘qituvchilik kasbi tufayli boshidan o‘tkazgan voqealar tasvirlanadi. Asar syujeti Angliyaning janubida joylashgan Iton shahrida boshlanib, Angliya shimolida ro‘y beradigan voqealar bilan davom etadi. Asarning birinchi qismi mana shu ikki joyda sodir bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga qamrab oladi. Asarning ilk bobi Charlzga yuborilgan xat tasviri bilan boshlanadi. Charlz maktub kelgan vaqtida Itondan ketishga qaror qilgan bo‘lib, xatni e‘tiborsiz qoldiradi. Angliya

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

shimoliga kelgach, akasi Edvardga hujjatlarni tahrir qilish masalasida yordam berishga harakat qiladi. Natijada Edvardning kotibiga aylanib qoladi. Asarning ikkinchi qismi Charlzning Brusselga sayohat qilishidan boshlanadi. Sayohat unga katta imkoniyat taqdim etadi. Dastlab Brusseldagi maktabga o‘qituvchi bo‘lib ishga joylashadi. Kasb-kori sabab Brusselda sanoatning rivojlanayotganiga guvoh bo‘ladi. Brusselda rivojlanayotgan sanoat muhitida Charlz o‘zining ham moddiy tarafdin, ham ma’naviy tarafdin haqiqiy shaxs sifatida ulg‘ayganligini his qiladi. Sharlotta Bronte Brusseldagi sanoatlashish jarayoniga, shahar arxitekturasiga katta e’tibor qaratadi. Ularni asarda batafsil tasvirlashga harakat qiladi. Asarning dastlabki qismida bosh qahramonning qat’iyatligi chuqur ochib berilmagan bo‘lib, ayni shu jihatni tanqidchi Vinfred Gerin xarakter qirralarini ochishdagi asosiy kamchilik sifatida baholanadi¹, Gilbert esa roman qator muammolarni o‘zida aks ettirgan bo‘lsa-da, qahramon bir nechta stereotipik ayol fazilatlarini bilan uyg‘unlashtirib yuborilgan deb baholadi². Bosh qahramon Charlzning ayolsifat belgilari uning bo‘ysunuvchan va kuchsiz xarakterida, qolaversa, iqtisodiy tarafdin qaramliligida ko‘zga tashlanadi. Asar qahramoni adibaning o‘ziga o‘xshab, qachonki, Brusselga borganidan so‘nggina shaxs sifatida shakllanganligini kasbi orqali ko‘rsatadi. Charlzning ilk urinishlari muvaffaqiyatsiz bo‘lganidek, Sharlotta Brontening ham ilk ijod namunasi zerikarli roman deb baholanishida o‘z ifodasini topadi. Brusseldagi ta’lim adibani nechog‘li o‘zgartirgan bo‘lsa, Charlzning ham shunchalik shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotshunos Inga Stina Ivbank opa-singil Brontelarni Viktorian davridagi ilk adibalar sifatida o‘rganar ekan, aynan Sharlotta o‘z hayotiy tajribasiga asoslanib, yozilgan romanda avtobiografik elementlar ko‘p uchrashini ta’kidlaydi. Ayni paytda asarga baho berar ekan, oddiy kundalik hayotni hikoya qilgan roman kitobxon e’tiborini tortmasligini ham keskin bildirib o‘tadi³. Filiz Bentli fikricha, asardagi Professor obrazi adibaning, ya’ni Sharlottaning o‘zi bo‘lib, Brussel tajribasining ko‘zguvidir, shu bilan birga kamtarin o‘qituvchining o‘ziga xos hikoyasi hamdir. Adibaning o‘zi asar muqaddimasida mening qahramonim oddiy va o‘ziga xos taqdir yo‘lini bosib o‘tadi. U jamiyatdagi olg‘irlar kabi birdaniga katta boylik egasi yoxud meros egasiga aylanmaydi, aksincha, taqdir izmidan borib, o‘z mehnatiga loyiq baxtga erishadi, deb yozadi. Elizabet Gaskell esa Sharlotta haqiqat tomonida bo‘lib, hayotda qanday bo‘lsa, xuddi shunday tasvirlashni afzal bilganligini ta’kidlagan.

¹ Gerin W. Anne Bronte. London: Thomas Nelson and sons. London: Chapman and Hall. 1959. –R. 28.

² Gilbert C. The Women writer in the Nineteenth century literary imagination. New Haven: Yale University press 1979. –R. 69.

³ Ewbank I.S. The Proper Sphere: A study of the Bronte Sisters as early Victoria female writers. London: Edward Arnold 1966. –R.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Adiba noshir Luisga yozgan xatlarining birida e’tirof etib, quyidagilarni bayon etgan edi: “Yozishni boshlaganimda siz ilgari surgan tamoyillardan hayratda qoldim. Men haqiqatni o‘zimga yo‘lboshchi sifatida qabul qildim va uning ortidan ergashdim. Men romantikani chetlab o‘tib, his-hayajonimni bosdim va hatto yorqin rang berishdan ham qochdim. Tan olinishi og‘ir bo‘lgan va to‘g‘ri deb bilgan narsam haqida yozdim⁴.

Roman noshirlari o‘zini o‘zi rivojlantirish haqidagi ertakni hikoya qiluvchi asarda Karer Bell va Uilyam Krimsort Charlz erkaklar niqobini yashirgan deb hisoblashdi. Adibaga keyingi romanlarda shunchaki tajriba transkriptidan voz kechib, yo‘nalishni o‘zgartirishni maslahat berishdi.

Tanqidchi Pamela Boumelxa fikricha, asar qahramonida ikkita ovoz mavjud: biri Charlz, ikkinchisi Kyurer Belldir. Asar nomi ham noto‘g‘ri talqinlarga asos bo‘ladi va noaniq mazmunni ifodalaydi. O‘qituvchilik Uilyamning asosiy belgisidir. Shu bois asar matnida bir qator asosiy obrazlar qatorida muqobil ravishda aynan professorlik, ya’ni o‘qituvchilikka urg‘u qaratiladi. Biroq u professional yoki oddiy o‘qituvchi sifatiga emas, balki uning ruhiy holatiga e’tibor berganligini ta’kidlaydi⁵.

Adiba asarning kirish qismida epistolyar janr elementi sifatida xat detalidan foydalangan. Ingliz adabiyotshunoslari buni asarda muhim ahamiyatga ega emas deb hisoblashdi. Xususan, Brammer kuzatishida xat detali asarda ortiqcha bo‘lib, eski uslubga qaytish ekanligi ham ta’kidlangan⁶. Ma’lumki, asarda Uilyam Krimsortning kelib chiqishi ona tarafidan aristokratlarga borib taqalsa-da, otasi tarafidan oddiy oila farzandi ekanligi batafsil hikoya qilinadi. Onasi vafotidan keyingina otasi Uilyam va Edvardni badavlat tog‘alari qo‘liga topshiradi. Munaqqid ushbu voqeani adiba hayoti bilan qiyoslab, Sharlotta kabi asar qahramonlari ham yetimlar ekanligiga yana bir bor e’tiborni jalb etadi. Umuman olganda, adibaning deyarli barcha asarlarida bosh qahramonlar yetim obrazlar misolida gavdalanadi. Binobarin, bu hol qahramonlar qismati qisman bo‘lsa-da adiba hayot yo‘li bilan uyg‘unlashgandek taassurot qoldiradi. Bu o‘xshashlikni tanqidchi Ch.Burkxart o‘z intilishiga ko‘ra munosib joy qidirayotgan tipik Bronte timsoli nafaqat Uilyam balida, balki Lyusi Snov va Jeyn Eyrdam ham namoyon bo‘lishini aytib o‘tadi⁷.

⁴ Mukhammedova Kh. Peculiarities of women prose in Victorian English literature. International Journal of Early Childhood Special Education // Vol 14, Issue 05. 2022. –R. 3.

⁵ Boumelha P. Charlotte Bronte. Bloomington and Indiana polis: Indiana University Press. 1990. –R. 79.

⁶ Brammer M.M. Manuscript of the Professor. Review of English studies. <http://dx.doi.org/10.1093/res/XI.42>. – R. 157.

⁷ Burkhardt C. Charlotte Bronte: A Psychosexual study of her novels. London: Victor Gollanz LTD. 1973. –R.85.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Asarda hikoya qilingan voqealar rivojida Uilyamning jon kuydirib ishlashi Edvardga kotiblik qilayotgan vaqtida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Har bir hujjatni sinchiklab o‘rganar ekan Uilyam o‘ziga xos dunyoni kashf etadi.

“Men Edvardga yordamchi bo‘lib ishladim va bunga mas’uliyat bilan yondashdim. Menga nima vazifa yuklatilgan bo‘lsa, shuni bajarish uchun yetarlicha kuch bor edi. Janob Krashvorski ishlarimni jiddiy kuzatdi biroq, aytarli hech qanday kamchilik topmadi⁸”. Edvard topshirilgan hujjatlarda kamchilik chiqmaydi va u ukasiga belgilagan tartibda maosh to‘lay boshlaydi. Uilyam o‘ziga topshirilgan ishni bajarar ekan, undagi mas’uliyat va qat’iyatli irodasi tobora ko‘rina boshlaydi. “U adashgandi. Men har doim aytilgan barcha narsani o‘z vaqtida bajarishga harakat qilaman. Janob Krashvorski men haqimda so‘rab surishtiribdi, qanday yashayman, qarzga botganmanmi yoki yo‘qmi, albatta yo‘q. Hammadan oddiy yordamchi haqida ikir chikirigacha so‘rab surishtirish, albatta, jirkanch ish⁹”. Ishining ortidan orttirgan maoshini tejamkorlik bilan sarflashini adiba mohirlik bilan ifoda etadi. Obrazning bu xususiyatiga adabiyotshunos Karl Plaza alohida e’tibor qaratib, sabot bilan yuzaga chiqadigan mehnat samarasi deb baholasa¹⁰, Xizer Glen esa o‘ziga bo‘lgan ishonch tufayli o‘zini o‘zi to‘g‘ri boshqara olish xususiyati deb ta’kidlaydi¹¹. Romanda Uilyamning Brusselga kelishi va o‘zi istagan kasbi o‘qituvchilik bilan shug‘ullanishi ko‘tarinki ruhda tasvirlanadi. O‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan mehr tufayli u o‘z baxtini topadi. Asar voqealari Uilyamning o‘z oilasi bilan Angliyaga qaytib kelayotgani bilan yakun topadi. Adiba qahramonining Brusselga qilgan sayohatini ana shu tarzda hikoya qildi. Garchand uning hikoyasi biroz soddaroq bo‘lsa-da, asardagi har bir detal haqqoniy tasvirlangani bilan e’tirofqa molikdir. O‘z davrida zerikarli deb baho olgan asar yillar o‘tib nashr etiladi. Biroq roman kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan bo‘lsa-da “Jeyn Eyr” kabi shov-shuv bo‘lmadi.

O‘zgarayotgan ayol qiyofasini chizib berishga harakat qilgan adiba ayolning mustaqil va qaram bo‘lmagan shaxs ekanligiga urg‘u beradi. Ayolning yuksak ma’naviyatini, uning fazilatlarini uy konseptidan uzoqlashmagan holda talqin etishga harakat qildi. Sharlotta Brontening hayoti viktorian davrning gullab yashnagan davriga, ya’ni o‘rta viktorian davriga to‘g‘ri keldi. Mana shu davrda o‘z haq-huquqi va mavqeyi uchun kurashayotgan ayol uy doirasida cheklanishni istamadi. Endilikda

⁸ Bronte Ch. The Professor. London: The Electronic Book Company. 2002. –P. 22-24.

⁹ Bronte Ch. The Professor. London: The Electronic Book Company. 2002. –P. 39.

¹⁰ Plaza C. Charlotte Bronte. New York: Palgrave Macmillan 2015. –R. 134.

¹¹ Ewbank I.S. The Proper Sphere: A study of the Bronte Sisters as early Victoria female writers. London: Edward Arnold. 1966. –P. 178.

ayollar uydan uzoqlashmagan, ammo tobe bo‘lishni istamagan inson bo‘lishga harakat qilishardi. Jamiyatning bu o‘zgarishlarini adiba aynan “Jeyn Eyr” asarida batafsil aks ettiradi. Mazkur asar nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham jahon adabiyotining klassik namunasi sifatida tan olinadi. Viktorian davri ingliz ayolining mustaqil va erkin bo‘lishini, shu bilan birga qaram bo‘lib qolmaslik uchun kurashuvchi ayol timsolini ko‘rsatib bera oladigan shoh asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boumelha P. Charlotte Bronte. Bloomington and Indiana polis: Indiana University Press. 1990. –R. 79.
2. Brammer M.M. Manuscript of the Professor. Review of English studies. <http://dx.doi.org/10.1093/res/XI.42>. – R. 157.
3. Burkhart C. Charlotte Bronte: A Psychosexual study of her novels. London: Victor Gollanz LTD. 1973. –R.85.
4. Bronte Ch. The Professor. London: The Electronic Book Company. 2002. –P. 22-24.
5. Ewbank I.S. The Proper Sphere: A study of the Bronte Sisters as early Victoria female writers. London: Edward Arnold 1966. –R. 31.
6. Gerin W. Anne Bronte. London: Thomas Nelson and sons. London: Chapman and Hall. 1959. –R. 28.
7. Gilbert C. The Women writer in the Nineteenth century literary imagination. New Haven: Yale University press 1979. –R. 69.
8. Mukhammedova Kh. Peculiarities of women prose in Victorian English literature. International Journal of Early Childhood Special Education // Vol 14, Issue 05. 2022. – 8 p.
9. Plaza C. Charlotte Bronte. New York: Palgrave Macmillan 2015. –R. 152.